

FE'LLAR BILAN QO'LLANUVCHI HAFRLARNING BERILISHI

Mamazulunov Husnuddin

Alfraganus universiteti o'qituvchi

Fe'llarni tushlash jarayonida u yoki bu harf so'z turkumiga oid yuklamalar uning tarkibiga kiradi.

«ليس» inkor fe'li funksiyasini bajaruvchi «ما» va «لا» yuklamalari. Ular ismni (ya'ni, egani) bosh kelishikda, xabarni (ya'ni, kesimni) tushum kelishigida turishni talab etadilar.

1. «ما» inkor yuklamasi:

«... و ما تدخل على المعرفة و النكرة نحو، ما زيد قائماً و ما رجل قاعداً...»

«ما» yuklamasidan keyin ega aniq yoki noaniq holatda kelishi mumkin. Masalan: Zayd turmagan (egasi aniq holatda). Kishi o'tirmagan (egasi noaniq holatda).

2. «لا» inkor yuklamasi:

«... و لا لا تدخل إلا على النكرة نحو، لا رجل أفضل منك...»

«لا» yuklamasidan keyin ega faqat noaniq holatda keladi. Masalan: Sendan afzal kishi (noaniq holatda) yo'q.

3. «الواو» (birgalik ma'nosida) yuklamasi, u quyidagi ma'noda ishlatiladi:

«... الواو بمعنى مع و يكون ما قبلها الفعل نحو، استوى الماء و الخشبة أو معنى الفعل نحو، ما شأنك و زيداً أى ما تصنع و زيد...»

«مع» ko'makchisi ma'nosida, ya'ni bu yuklama birgalik ma'nosida keladi va undan oldin fe'l yoki fe'l ma'nosida ism kelishi kerak. Masalan: Yog'och bilan suv tenglashdi (yuklamadan oldin fe'l ma'nosidagi ism kelgan).

Shuningdek, bu «الواو المعية» (birgalik vovi), deb ham ataladi. Undan keyin kelayotgan to'ldiruvchi «المفعول معه» (birgalik to'ldiruvchisi) deyiladi. Antuan Dahdah «مفعول معه» ning bir qancha shartlarini sanab o'tadi:

« أحكام المفعول معه:

1. ينصب بالفعل المتقدم عليه أو بشبهه، لا بواو المعية لأنها وسيلة لوصول معنى الفعل إليه:

1.2- النصب بالفعل : جلس الأب و الأسرة.

1.3- بالمصدر : يعجبني سيرك و الرصيف.

1.4- بإسم الفاعل : الرجل سائر و الحقائق.

1.5- بإسم المفعول : السيارة متروكة و السائق.

1.6- بإسم الفعل : رويدك و الغاضب.

2. لا يجوز أن يتقدم على عامله مطلقاً ولا أن يتوسط بينه و بين الإسم المشار له ، فلا يقال : و الحديقة مشى الرجل. و لا : مشى و الحديقة الرجل. بل: مشى الرجل و الحديقة¹.

Birgalik to'ldiruvchisi quyidagi shartlardan iborat:

1. Birgalik «vov»i bilan emas, balki fe'l yoki fe'l ma'nosidagi ism bilan [birgalik to'ldiruvchisi] tushum kelishigiga quyiladi. Birgalik «vov»i esa fe'l ma'nosini beruvchi vosita vazifasini bajaradi:

¹ السفير أنطوان الدحداح. معجم قواعد العربية العالمية. مكتبة لبنان. بيروت. 1992. ص. 172.

- 1.1. Fe'l bilan tushum kelishigiga qo'yiladi: Ota oila bilan o'tirdi.
- 1.2. Masdar bilan tushum kelishigiga qo'yiladi: Tratuardan (tratar bilan) yurishing menga yoqdi.
- 1.3. Aniq daraja sifatdosh bilan tushum kelishigiga qo'yiladi: Kishi bog'larni sayr qilayapti.
- 1.4. Majhul daraja sifatdosh bilan tushum kelishigiga qo'yiladi: haydovchi tashlab ketgan mashina.
- 1.5. Fe'lga o'xshash ism bilan tushum kelishigiga qo'yiladi: G'azabingni pasaytir (so'zma-so'z: O'zingni sekinlashtir g'azablanish bilan birga)
2. Birgalik to'ldiruvchi hech qachon ega va kesimdan oldin yoki ularning orasiga qo'yib ishlatilmaydi. Agar: «مشى و الحديقة الرجل» yoki «مشى و الحديقة الرجل» deb bo'lmaydi, balki «مشى الرجل و الحديقة» - Kishi bog' bilan (orqali) yurdi, –deyish to'g'ri bo'ladi.
- Jurjoniyy bergan «ما شأنك و زيداً» misoli yuqoridagi misollarga to'g'ri kelmaydi.
- Antuan Dahdah bunday jummalarni shunday tushuntiradi:
- «سَمِعَ مِنَ الْعَرَبِ نَصْبَهُ بَعْدَمَا وَ كَيْفَ الْإِسْتِفْهَامِيَّتَيْنِ : مَا أَنْتَ وَ الطَّبِّ. وَ التَّقْدِيرِ : مَا تَكُونُ أَنْتَ وَ الطَّبِّ»².
- Arablar ba'zida «ما» va «كيف» so'roq yuklamalaridan so'ng birgalik to'ldiruvchisini qo'yishi mumkin. Masalan: «ما أَنْتَ وَ الطَّبِّ» (Sening davolanishing nima bo'ldi?), aslida bu jumla shunday: «ما تَكُونُ أَنْتَ وَ الطَّبِّ» - Sening davolanishing nima bo'ldi?
- Demak, bunday jumlarning taqdirida fe'l bor ekan. Bu kabi jumlar yuqoridagi qoidaga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Abduqayum Hikmat. Arab tili grammatikasidan saboqlar: E'rob qoidolari va omillar. – Toshkent: Movarounnahr, 2002.
2. Баранов Х. К. Арабско-русский словарь: Около 42 000 слов. – М.: Русский язык, 1985.
3. العوامل المائة النحوية في أصول علم العربية للجرجاني. – القاهرة: دار المعارف، الدكتور البدراوي زهران
4. الشيخ مصطفى الغلاييني جامع الدروس العربية. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2000. – ج.

¹ السفير أنطوان الدحداح. معجم قواعد العربية العالمية. مكتبة لبنان. بيروت. 1992. ص. 172.